



Xizmatlar sohasi

(dastlabki ma'lumotlar)

2017 yil yanvar-iyul


Raqamlar:

- 2017 yil yanvar-iyul oylarida bozor xizmatlari hajmi 3705,2 mlrd.so'mni tashkil etdi.
- Moliyaviy xizmatlar o'sish sur'ati 142,4 foizni tashkil qildi.
- Jami bozor xizmatlarida savdo xizmatlarning ulushi – 35,7 foiz.

Xizmatlar sohasini rivojlantirish dasturining asosiy vazifa va yo'nalishlarini amalga oshirish jarayonida 2017 yil yanvar-iyul yakunlari bo'yicha bozor xizmatlari hajmi 3705,2 mlrd.so'mni, o'sish sur'ati o'tgan yilga nisbatan 110,7 foizni tashkil etdi.

Xizmatlar tarkibida eng katta ulush savdo xizmatlari (jami xizmatlarning 35,7 foizi), transport xizmatlari (19,5 foiz), moliyaviy xizmatlar (9,2 foiz), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (7,9 foiz) hissasiga to'g'ri keldi.

2017 yil yanvar-iyulda xizmatlar tarkibi, % da



Xizmatlar sohasi

2017 yil yanvar-iyul oylarida dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 3705,2 mlrd. so'mga teng bo'ldi. O'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 110,7 % ni tashkil etdi.

2017 yil yanvar-iyul oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha bozor xizmatlari o'sish sur'ati, % da

| | Hajmi, mlrd.so'm | O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, % |
|--|---------------------|---|
| Xizmatlar - jami | 3705,2 | 110,7 |
| shu jumladan: | | |
| Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari | 291,3 | 120,5 |
| Moliyaviy xizmatlar | 342,7 | 142,4 |
| Transport xizmatlari | 721,1 | 108,6 |
| shu jumladan: avtotransport xizmatlari | 667,0 | 108,1 |
| Yashash va ovqatlanish xizmatlari | 112,1 | 110,6 |
| Savdo xizmatlari | 1323,9 | 105,9 |
| Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar | 124,8 | 105,4 |
| Ta'lim sohasidagi xizmatlar | 144,7 | 103,5 |
| Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar | 61,0 | 111,2 |
| Ijara xizmatlari | 128,0 | 106,3 |
| Kompyuterlar va ma'shiy tovarlarni ta'mirlash | 150,8 | 107,6 |
| Shaxsiy xizmatlar | 185,7 | 107,5 |
| Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik | 22,6 | 106,7 |
| Boshqa xizmatlar | 96,5 | 107,7 |

Viloyat hududida yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlanishi, avvalo aholi real daromadlarining o'sishi, yakuniy iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish tarmoqlarining rivojlanishi bilan bog'liq bo'lib, bu har xil turdagi xizmatlarning rivojlanishiga kuchli ta'sir ko'rsatmoqda

2017 yil yanvar-iyul oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlar hajmi 1010,9 ming so'mga teng bo'ldi. O'sish sur'ati o'tgan yilning shu davriga nisbatan 108,7 % ni tashkil etdi